

“Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirishning innovatsion usullari” mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi

2018 yilning 9-10-oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasida “Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirishning innovatsion usullari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zFA vitse-prezidenti B.T.Ibragimov, respublikamizdagi etakchi olimlar, oliy ta‘lim muassasalari vakillari ishtirok etishdi.



Ikki kun davom etgan konferensiyada madaniy o‘simliklar agrobiologiyasining yutuqlari, muammolari va istiqbollari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini oshirish usullari, qishloq xo‘jaligida ekinlarning hosildorligini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda qishloq ho‘jaligi, biologiya, tuproqshunoslik va ekologiya sohalarida fan-ta‘lim integratsiyasini yanada rivojlantirish muammolari va yutuqlari kabi qator masalalar bo‘yicha ma‘ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.